



## XALQ DEPUTATLARI URGUT TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 12-fevral

VII-5-17-7-105-K/25

Urgut tumani

### **2025-yilda Urgut tumani bo'yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va yer qa'ridan foydalanganlik uchun bazaviy soliq stavkalariga qo'llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo'llash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi "Soliq va budjet siyosatining 2025-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-1014- sonli Qonuni bilan O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 445, 452-moddalariga kiritilgan o'zgartirishlarga muvofiq, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuning 6 va 24-moddalariga muvofiq, shuningdek Soliq qo'mitasining 2024-yil 15-noyabrdagi 24-117005-sonli xati hamda tuman soliq inspeksiyaysning 2025-yil 15-yanvardagi 01-00705-sonli xatini inobatga olib Xalq deputatlari Urgut tumani Kengashi yettinchi chaqiriq, navbatdagi beshinchi sessiyasi

#### **QAROR QILADI:**

1. O'zbekiston Respublikasining "2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi "Soliq va budjet siyosatining 2025-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-1014-sonli Qonuni bilan O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 445, 452-moddalariga kiritilgan o'zgartirishlar shuningdek Soliq qo'mitasining 2024-yil 15-noyabrdagi 24-117005-sonli xati hamda tuman soliq inspeksiyaysning 2025-yil 15-yanvardagi 01-00705-sonli xati rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman Soliq inspeksiyasi hududlarning iqtisodiy rivojlanganlik darjasini hamda tuman hokimligining 2025-yil uchun belgilangan mahalliy budjet prognozidan kelib chiqib, tuman bo'yicha 2025-yilda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalarining mutlaq miqdorlariga nisbatan

kamaytiriluvchi va oshiriluvchi koeffitsiyentlarni qo'llash bo'yicha takliflari inobatga olinsin.

2025-yil uchun Urgut tumani hududida suv solig'i stavkasi 1-ilovaga hamda yer qaridan foydalanilganlik uchun soliq stavkasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinosari U.Kamolov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi (Sh. To'ychiyev), tuman soliq inspeksiyasi (S.Qodirov) bilan birqalikda mazkur qaror o'z vaqtida va samarali bajarilishini ta'minlash choralarini ko'rsin.

4. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

5. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda Urgut tumani hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Urgut tumani Kengashining Mahalliy budget, tadbirdorlikni rivoytlantirish va iqtisodiy islohotlar bo'yicha doimiy komissiyasi (O.Azimurodov) hamda tuman hokimining birinchi o'rinosari (U.Kamolov) zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Sessiya raisi



XUDAYKULOV  
SHERALI  
UMIRZAKOVICH

Xalq deputatlari Urgut tumani Kengashining  
 2025-yil 12-fevraldag'i  
 VII-5-17-7-105-K/25 -son qaroriga  
 1-ilova

**O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 445-moddasiga muvofiq 2025-yilda Urgut tumanida Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsiyentlar  
 (suv hajmiga nisbatan)**

T/R	Yer usti suv manbasi			Yer osti suv manbasi		
	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar (2-bandda ko'rsatilganlar mustasno), shu jumladan sanoat korxonalari, yakka tartibdagi tadbirkorlar va tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo'ljallangan, yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk obyektlariga ega bo'lgan jismoniy shaxslar	Avtotransport vositalarini yuvish	Alkogolsiz ichimliklarni hamda (pivo va vinodan tashqari) alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar (2-bandda ko'rsatilganlar mustasno), shu jumladan sanoat korxonalari, yakka tartibdagi tadbirkorlar va tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo'ljallangan, yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk obyektlariga ega bo'lgan jismoniy shaxslar	Avtotransport vositalarini yuvish	Alkogolsiz ichimliklarni hamda (pivo va vinodan tashqari) alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish
1	1,20	1,20	1,20	1,20	1,20	1,20

**Izoh:** O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 445-moddasiga muvofiq "Belgilangan limit doirasida yer usti va yer osti manbalaridan olinadigan suv resurslari uchun" soliq stavkalari mutlaq miqdorda bir kub metr uchun soliq stavkalariga xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari tomonidan qo'llanilayotgan oshiruvchi va kamaytiruvchi koeffitsiyentlar mazkur moddaning 2-3-bandlari, shuningdek ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlangan yirik soliq to'lovchilarga tatbiq etilmasligi belgilab qo'yilsin.



Xalq deputatlari Urgut tumani Kengashining  
 2025-yil 12-fevraldag'i  
 VII-5-17-7-105-K/25 -son qaroriga  
 2-ilova

**O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 452-moddasiga muvofiq 2025-yilda Urgut tumanida yer qa'ridan foydalanganlik noruda qurilish materiallari uchun (sement ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan ohaktoshdan tashqari) qat'iy soliq stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsiyentlar**

T/R	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig'anoq, ohaktosh (sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan ohaktoshdan tashqari), dolomitlar, qurilishda ishlataladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosiyenitlar, siyenitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	Tabiiy bezaktoshdan bloklar	Marmar	Granitlar	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	G'isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	Qum-shag'al aralashmasi qurilish qumi, qumtoshlar
1	1,2	1,2	1,2	1,2	1,2	1,2	1,3